



“ARALASHQO‘RG‘ON” HIKOYASIDA KOMPOZITSION UNSURLAR O‘RNI

RUZIBOYEV BOBIR

JDPU mustaqil tadqiqotchisi (PhD),

Bulung‘ur tuman MMTB ga qarashli 69-maktabning

ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

boburroziboyev07@gmail.com

Annotatsiya. Hozirgi zamon o‘zbek hikoyachiligida yozuvchi Erkin A‘zamning “Aralashqo‘rg‘on” hikoyasida o‘ziga xos kompozitsion unsurlari ochib berishda ijodkorning individual qirralari muhim ekanligi mazkur maqola orqali bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: hikoya, uslub, individuallik, obraz, unsur.

Abstract. This article explains the importance of the individual aspects of the creator in revealing unique compositional elements in the story "Aralashkurgon" by the writer Erkin A'zam in contemporary Uzbek storytelling.

Keywords: story, style, individuality, image, element.

Kirish.

Yozuvchi Erkin A‘zamning “Aralashqo‘rg‘on” hikoyasida o‘ziga xos kompozitsion unsurlarning joylashuvi kuzatiladi. Bu unsurlar yozuvchining g‘oyaviy niyatiga bo‘ysundirilgan.

Asar sarlavhasi hikoyaning mazmunidan kelib chiqqan. Unda bir qo‘rg‘on – mahalla kishilarining o‘ziga xos hayot tarzi aks ettirilgan. Har xil



toifa insonlar tavsiflanganligi uchun ham “Aralashqo‘rg‘on” atamasi hikoyaga mos keladi. Shuningdek, hikoya syujet unsurlarining joylashuviga ko‘ra ekspozitsiyaning o‘rniga tugundan boshlanganligi ham yozuvchining g‘oyaviy niyati amalga oshirilishida o‘ziga xos o‘rin tutadi:

“Musofirning o‘rtancha qizini Kattakonning kuchugi qopgani xabari kelganda biz qo‘rg‘on og‘zidagi qo‘lbola choyxonamizda kartabozlik bilan mashg‘ul edik” [1,35]. Hikoyaning qahramonlaridan biri Kattakon nomi bilan yuritiladi, bu mahallada yashamasa-da, shu yerdan uy sotib olib sevimli kuchugini shu yerda saqlayotgan bir kishi bo‘ladi. Uning iti odam tishlamasdan ilgari tinmay hurib, qo‘rg‘ondagilarning asablariga tegayotgan bo‘ladi. Lekin ko‘pchilik Kattakondan qarzdor bo‘lganidan, ba’zilar uning egallab turgan amalini hisobga olib, bir nima deyishni xohlashmaydi.

Asar davomida ko‘pchilik qahramonlarga ism berilmagan. Ularni tavsiflashda ham yozuvchi o‘zining hajviy usulini kinoya qilish va kesatishlardan foydalanishni ma’qul ko‘radi. Asarda ko‘proq ishtirok etgan qahramonlar muallif yoki hikoyachi qahramon nutqi orqali tanishtirib beriladi:

“Biz”deganimiz – biz, E.Safarning ta’biricha, “mana shu xalqning bir bo‘lagi”. Muxbirimiz to‘g‘ri aytadi: sobiq kasaba uyushmasi arbobi – oqsoqol, negadir kamdan-kam odam o‘qiydigan sersahifa gazetasining jamoatchi muxbiri E.Safar (xat-xabarlari shunday imzo bilan chiqadi). Ikki nafar fan nomzodi (biri dotsent), “uch-to‘rt churvaqa”siga rizq qidirib yurt keza-digan daydi shopir, yangi zamondan ruhlanib, ko‘zi tushgan joyda do‘kon ochishni maqsad qilgan do‘kondor va hokazolar – xalq bo‘lmay nima?! [1,35].

Asarda interyerlar har xil o‘rinda sochma ravishda beriladi. Bir o‘rinda qo‘rg‘onning qopqasi, ya’ni darvozasini Kattakon qurib berganligi haqida



so‘z boradi. “Bizga qo‘shilib karta o‘ynamasa ham, o‘zidan bilib, mana, qo‘rg‘onning og‘zini ikki yondan silliq g‘isht bilan bejirim qilib ko‘tarib, gajakdor temir qopqa o‘rnatib berdi-ku, bu yog‘iga ham qarab turmas! Mahallada elektr, gaz yo telefonga aloqador nimaiki muammo yoki chiqim bo‘lsa – doim shu odam balogardon. Dalolat qilib borgan oqsoqolimizdan surishtirib ham o‘tirmay, darrov cho‘ntak kavlaydi. Ha-a, nimasini aytasiz, zo‘r odam, olijanob!..” [1,35]. Ushbu parchadan ham qahramon haqida ma‘lumotga ega bo‘lish mumkin, ham voqea sodir bo‘layotgan makon – qo‘rg‘onning bir bo‘lagi haqida bo‘lsa ham tasavvurga ega bo‘lish mumkin.

Hikoyachi qahramon yana bir o‘rinda oqsoqol degan lavozim uchun zimdan kurashayotgan do‘kondor xarakterini ochib berishda chorpoya detalidan va u bilan bog‘liq interyerdan unumli foydalanadi:

“Chorpoya – benihoya kengish, bahaybat, baquvvat. Boz ustiga – naqshinkor, qadimiy shohona degulik. Buni chegaradoshimiz bo‘lmish tashlandiq dam olish uyidan yetti-sakkiz kishi arang ko‘tarib kelganmiz. To‘g‘rirog‘i, devordan oshirib olganmiz. Bepoyon bog‘ning shox-shabba bosgan xilvat bir go‘shasida oyoqlari sinib, bo‘yoqlari ko‘chib yotgan edi. Dastlab buning daragini keltirgan” [1,38].

Hikoyada ayrim qahramonlar uchungina portret tasviri berilgan. Bulardan biri asardagi yetakchi qahramonlardan biri bo‘lgan Kattakon obrazi uchun berilgan:

“Kattakon deganimiz aslida xipchagina, o‘rtamiyona jussali bir odam. Lekin dami-siyosati zo‘r! Aytishlaricha, yaqin-yaqinga qadar vazir bo‘lgan ekan, hozir ham chakana emas – vazirlikdan-da moyliroq, chala, yo‘g‘-e, deyarli shaxsiy bir dovrug‘dor korxonaning xo‘jayini emish. Ro‘baro‘ kelganingizda boshini bir yonga solintirib, aftingizga taajjublangandek, ammo beozor tikilib turaveradi. Bunday paytda uncha-muncha odam undan savol



so‘ramoqqa ham jur‘at etolmaydi. Go‘yoki so‘z boshlasa, qandaydir xunuk bir hol sodir bo‘ladigandek, baayni osmon uzilib yerga tushadigandek tuyulaveradi. O‘zi esa salom-alikdan bo‘lak gap gapirmaydi. Vazmin, indamas. Yo pisand qilmasmikan? Ishqilib, sirli odam, Kattakon-da!” [1,41].

Bu parchadagi mazmundan Kattakon obrazining o‘ziga xos jihatlariga e‘tibor qaratilgan. Shu bilan birga jamiyatdagi ayrim mansabdorlarga xos illat darajasiga ko‘tarilayotgan kamchiliklar ham tilga olingan.

Kattakonning iti obrazi mansab va boylik orqali o‘z kirdikorlarini xaspo‘shlash, uning kuchugini haydash tugul, mushugini “pisht” deyishga jur‘at qilmaslik darajasiga yetkazish kabi holatlar aks ettirilgan. Yozuvchi o‘z g‘oyaviy niyatini amalga oshirishda muallif nutqidagi sarkazmdan tashqari qahramon nutqidagi o‘ziga xos jihatlariga ham ahamiyat qaratadi. Masalan, qo‘rg‘on oqsoqolining nabirasi obrazi orqali o‘z ona tilini yo‘qotayotgan insonlar - ayrim yoshlar obrazi tasvirlangan:

– Dedul! Dedul! Sizni babul chaqirvottilar. Tez kelarkansiz! Te-yez!

Yoki bir o‘rinda E.Safar degan jurnalist obrazini ochib berishda, uning og‘ir va iztirobli ruhiyatini ifodalashda ham qahramon nutqidan foydalaniladi:

– E, bo‘ldi-ye, padaringga la‘nat! Fonogramma degani ham bunchalik jonga tegmas!

Bunda qo‘llanilgan vulgarizm qahramon xarakterining ifodasi sifatida emas, balki uning psixologik holati ifodasi uchun qo‘llanilgan. Shuningdek, hikoya davomida ko‘pincha hikoyachi qahramon nutqida ayrim o‘ziga xos badiiy tasvir vositalari qo‘llanilganligini kuzatish mumkin. Masalan, “dam olish uyining “krutoy” direktori”, “tutal-tutal, g‘alcharoq o‘g‘il”, “imzobozlik”, “tupkanning tubi” kabilar shular jumlasidan.

“Aralashqo‘rg‘on” hikoyasi yozuvchi ijodidagi ijtimoiy munosabatlar, bugungi kishilarning hayot tarzi, insoniy munosabatlar va ayrim muammolar

aks ettirilgan o'ziga xos qiymatli vaznga ega hikoyalaridandir. Muallif o'zi asarlari qahramonlari haqida quyidagilarni ta'kidlab aytadi: "Kitobning qahramonlari – mana shu tevaragimizdagi odamlar, siz-u biz, lo'ndaroq aytsak – zamondoshlarimiz. Ularning orasida yaxshisi ham bor, yomoni ham. Darvoqe, o'zimiz shunday emasmizmi? Begunoh farishta bo'lganimizda osmonlarda parvoz qilib yurardik"...(kitob muqovasidan).

Xulosa. Haqiqatan ham, yozuvchi yaratgan qahramonlar o'zimizning atrofimizdagi insonlar, har bir xarakterda tanish birorta chehra ko'zga tashlangandek bo'ladi. Har bir obraz bizga kimnidir esga soladi. Ayrimlarining xarakter-xususiyatidagi belgilar bizda mavjuddek tuyulishidan hikoyalarning haqqoniy tasavvur berishidan yozuvchining mahoratini ilg'ash mumkin. Uni realistik adabiyot namunalari sirasiga kiritish mumkinligi unda haqqoniylik va hayotiylik mavjudligi bilan bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Эркин Аъзам. Жаннат ўзи қайдадир. – Тошкент. Шарқ, 2007. – 127 б.
2. Белинский В.Г. Адабий орзулар. –Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.
3. А.Расулов. Бадийлик –безавол янгилик. –Т.: Шарқ, 2007.
4. Д.Қуронов ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. –Т.: Академнашр. 2010.
5. Аристотель. Поэтика. Ахлоқи кабир. –Т.: Янги аср авлоди. 2004.

